

**PSIXOLOGNING OILADAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA’SIRI
VA TARBIYAVIY AHAMIYATI**

Gulhayo Safarova

Annotatsiya: Maqolada bugun jamiyatimizning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan oila va unga psixologik xizmat ko‘rsatishning o‘ziga xos bo‘lgan psixologik mexanizmlariga to‘xtalib o‘tilgan. Maqola Oilada psixologning tarbiyaviy ahamiyati mavzusida bo‘lib, unda psixologning oiladagi shaxslararo munosabatlarga ta’siri va tarbiyaviy ahamiyati haqida fikrlar yuritilgan. O‘zbekiston psixologlari tomonidan o‘zbek oilalariga xos muammolarni o‘rganish yuzasidan bir qator muvaffaqiyatli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ana shu ilmiy ishlarda oila-nikoh munosabatlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, o‘zbek oilalaridagi milliy o‘ziga xoslik, undagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi muhim sabablar, ajralishlar va ularning salbiy asoratlari kabi bir qator masalalar har tomonlama o‘rganilib tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Taraqqiyot, psixologik xizmat, oila instituti, nikoh, psixologik muammo, shaxs, oilaviy munosabatlar.

Аннотация: Статья посвящена теме воспитательного значения психолога в семье, а также обсуждается влияние и воспитательное значение психолога на межличностные отношения в семье. Узбекские психологи провели ряд успешных научных исследований по изучению проблем, характерных для узбекских семей. В этих научных работах всесторонне изучен и проанализирован ряд вопросов, таких как семейно-брачные отношения, подготовка молодежи к семейной жизни, национальное самосознание узбекских семей, споры и их важные причины, разводы и их негативные осложнения.

Ключевые слова: семья, проблема, воспитание, конфликты.

Annotation: The article is on the topic of the educational importance of a psychologist in the family, and it discusses the impact and educational importance of a psychologist on interpersonal relationships in the family. Uzbek psychologists have conducted a number of successful scientific researches to study the problems specific to Uzbek families. In these scientific works, a number of issues such as family-marriage relations, preparation of young people for family life, national identity of Uzbek families, disputes and their important causes, divorces and their negative complications have been comprehensively studied and analyzed. **Keywords:** family, problem, upbringing, conflicts.

Tarix va ijtimoiy hayot tamoyillari shuni ko‘rsatmoqdaki, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi va unda yuksak darajadagi hayot, turmush tarzining qaror toptirilishi, avvalo, har bir shaxsning o‘ziga xos psixologik bilim va salohiyatining ne chog‘lik to‘la-to‘kis namoyon etayotganligi bilan belgilanadi. Shu boisdan bo‘lsa kerak, hozirgi kunda barcha rivojlangan va rivojlanish yo‘lidan borayotgan mamlakatlar birinchi galda o‘z fuqarolarining ma’naviy, intellektual, jismoniy va ruhiy barkamolligiga va bundan ijtimoiy manfaatlar



uchun samarali foydalanish yo'llarini izlashga jiddiy e'tibor qaratmoqdalar. Shu nuqtai nazardan, har bir mamlakatda inson va uning ijtimoiy munosabatlari o'rtasida uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-psixologik xizmat tizimining joriy etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, hanuzgacha O'zbekistonda mukammal dasturga va amaliy tajribalar yakuniga asoslangan yagona psixologik xizmat tizimini boshqaruvchi rasmiy maqomga ega bo'lgan Markazning mavjud emasligi va ayni paytda, psixologik xizmat tizimining bugungi holati va uning amaliy faoliyat yo'nalishlarini har tomonlama, chuqur tahlil qiluvchi va shu tahlillar asosida psixologik xizmatning istiqbollari ochib beruvchi maxsus tadqiqotlarning taqchilligi, ayniqsa, oilaviy munosabatlar tizimidagi muammolarni hal qilishga amaliy yordam beruvchi psixologik xizmatning barcha fuqarolar foydalanishi mumkin bo'lgan darajada tashkil qilinmaganligi nihoyatda dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Demak, mazkur muammoni bartaraf etish uchun, O'zbekistonda psixologik xizmatning joriy etilishi, bugungi holati va istiqbollari o'rganishga, tahlil qilishga va izohlashga bag'ishlangan psixologik, ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning olib borilishi kelajagi buyuk bo'lgan O'zbekistonimiz ravnaqi uchun kechiktirib bo'lmas davr taqozosidir. Mustaqillik yillarida aholi sonining muttasil o'sib borishi hisobiga yosh oilalar soni ham oshdi. Shuninguchun bugungi kunimiz va ertangi istiqbolimiz uchun eng muhim va dolzarb masala - oilaga e'tiborni kuchaytirish, uni ijtimoiy-psixologik himoyalash va qo'llab-quvvatlash lozim. Demak, oila instituti jamiyat hayotiy faoliyatida ulkan ahamiyatga ega ekan, ijtimoiy psixologiya, amaliy psixologiya, oila psixologiyasi doirasida uning rivojlanish qonunlarini, barqarorligi va mustahkamligi omillarini aniqlash, aniqlangan ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqish, oilaning har bir a'zosi uchun psixologik xizmatdan foydalanish imkonini yaratish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bois oila va nikohning mustahkamligini saqlash, oilada sog'lom ijtimoiy muhitni yaratishga ko'maklashish orqali oila barqarorligini ta'minlash, oilaviy nizolar, ajrimlar, suisid holatlarining oldini olish hamda psixologik ko'makka muhtoj bo'lgan oila a'zosini psixologik bilimlar bilan qurollantirish va uning psixologik himoyalashiga erishish esa bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Oilaviy psixologik xizmatning metodologik asoslari sifatida talqin qilingan yuqoridagi fikr-mulohazalar ijtimoiy psixologiyaning quyidagi amaliy-tatbiqiy yo'nalishlariga bugungi kunning eng dolzarb muammolari sifatida qarashni taqozo etadi. 1. Oilaviy psixologik xizmat har bir oila a'zosining ijtimoiy va hissiy qoniqish jarayonini tadqiq qilishga qaratilgan usullar va uslublar majmuasiga asoslanishi; 2. Oilaviy psixologik xizmat shaxslarning (qaynona, qaynota, kelin, kuyov, er, xotin, farzand va h.k.) ijtimoiy jarayondagi o'z-o'ziga, o'zgalarga munosabatlaridagi ierarxik tizim dinamikasini tadqiq qilish va shu tizim asosida ijtimoiy psixologik muhitning yaratilishiga zamin hozirlay olishi bilan bog'liq izlanishlar ko'lamini o'z ichiga olishi; 3. Oilaviy psixologik xizmat jarayoni oila a'zolari bilan bog'liq muhim ijtimoiy ko'rsatkichlarning tahlili hamda har bir shaxs uchun xarakterli bo'lgan individual xususiyatlar va ijtimoiy ustanovkalarni qaror toptirilishini o'rganish asosida amalga oshirilishi; 4. Oilaviy psixologik xizmat jarayonini ijtimoiy-psixologik muhofaza vositasi sifatida tadqiq qilish muammosi bugungi kunda ijtimoiy



psixologiyani eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi va bu muammoni bartaraf etishda ma'lum psixologik tamoyillarga tayanish talab qilinadi. Oilaviy psixoterapiya o'z taraqqiyoti davomida ikki bosqich (tibbiy va psixologik)ni bosib o'tdi. 20-asrning ikkinchi yarimlaridan boshlab, sobiq ittifoqda faqat tibbiy natijalarni emas, balki oilalar a'zolarining shaxs sifatidagi takomili hamda ular orasidagi munosabatlarni maqsadga muvofiq ta'minlashga yo'naltirilgan psixologik maslahat va psixologik oilaviy terapiya jadal rivojlana boshladi. Bunda ko'proq E.G.Eydemillerning hammualliflikda chop etgan «Oilaviy psixoterapiya» (1990) nomli ilk monografiyasi muhim rol o'ynadi. Unda mualliflar asab-psixik kasalliklarini davolashda oilaviy psixoterapiyada qo'llanadigan tadqiqot metodlari, mazkur jarayonga xos mexanizmlar xususidagi xulosalarni umumlashtirganlar. Ular oilani bosqichma-bosqich ko'p funksiyali va ko'p darajali tizim sifatida tasnif etadigan yangi metodologik yondashuvlarni taklif etdilar. Olimlarning ta'kidlashlaricha, oilaning biror a'zosi asab-psixik kasalliklardan aziyat cheksa, oilaning bir butunligiga putur yetadi va guruhiiy patologik xarakter kasb etuvchi psixologik himoyaning mexanizmlari shakllana boshlaydi. Bugungi kunda oilaviy psixoterapiya psixoterapiyaning boshqa yo'nalishlari, xususan, individual va guruhiiy psixoterapiya bilan chambarchas bog'liqlikda jadal rivojlanmoqda. Oxirgi o'n yillikda oilaviy psixologik xizmat rivojida keskin yuksalish ro'y berdi, oiladagi muammolarni bartaraf etishga ko'maklashishni o'z oldiga maqsad qilib olgan turli muassasa va tashkilotlar vujudga keldi. Oilaga xizmat ko'rsatuvchi psixolog, psixoterapevtning asosiy tamoyili taxminan quyidagi jumlada ifodalanishi mumkin: «Men Sizning ko'p muammolaringizni, ayniqsa, oilaviy masalaga aloqadorlarini hal qilib bera olmayman. Bu muammolarni o'zingiz bartaraf etishni o'rganishingiz zarur. Buning uchun esa kerakli bilim hamda ko'nikmalarni egallashingiz darkor. Biroq ularni o'zlashtirganingizdan so'ng mening maslahatlarim Sizga bag'oyat foydali bo'lishi mumkin. O'shanda men Sizga maslahat va tavsiyalar berishim, Sizni qo'llabquvvatlashim mumkin». Masala, muammoning shu taqlit qo'yilishi natijasida oila a'zolari psixologdan sust shaklda yordam kutayotgan vaqtda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'ta noxush psixoterapevtik vaziyatlardan xalos bo'lish imkoni tug'iladi. Mijoz yoki yordam ko'rsatish lozim bo'lgan shaxs bunday paytda o'z muammolarini hal qilish uchun psixolog bilan birgalikda faol harakat qila oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Elov Z.S. Berdiyeva D.Sh. Psychological reasons for suicide motivation in adolescents with deviant behavior. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. VOLUME 2, ISSUE 2 February 2022 1003-1009
2. Elov Z.S. Causes and analysis of suicidal thoughts among adolescents. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 6 | Issue: 11 | November 2021 75-76



3. Elov Z.S. Conditions and the reasons of cases of the suicide among the staff of law-enforcement bodies European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 5 2017

4. Elov Z.S. Ichki ishlar organlari xodimlari orasida suisidal xulq motivasiyasi namoyon etilishining ijtimoiy-psixologik sabablari. The best innovator in science №1 2022. 583-591

5. Elov Z.S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O‘quv-metodik qo‘llanma. 2021. Buxoro 1-164.

6. Elov Z.S. Psychological influence of speech disorders and the causes that cause them on the child's psyche. Academicia globe: inderscience research Volume: 3, ISSUE 1, JANUARY-2022 39-42

7. Elov Z.S. Researches of the Reasons Conditions, Fastors of Suicide Rick Intellectual Archive Volume 5 Number 1. 2016. 49-53

8. Elov.Z.S. Қадимги халқлар урф-одатлари ва ривожланган жамиятда ўз жонига қасд қилишнинг ижтимоий психологик сабаблари. Тарих ва бугун (қадимги халқлар урф-одатлари ва бугунги замон) JAMIYAT VA INNOVASIYALAR. 10.2021 169-173

